

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|  |     |
|--|-----|
| <b>X.X.Raxmatova</b>   |     |
| Naqshbandiya ta'limotida murosa falsafasiga munosabatning o'ziga xos xususiyatlari .....                           | 98  |
| <b>X.A.Yulbarsova</b>  |     |
| Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari .....                          | 102 |
| <b>A.B.G'ulomov</b>  |     |
| Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning falsafiy jihatlari .....   | 107 |
| <b>B.Raxmanov</b>  |     |
| Ibn Sinoning nochiziqli tafakkur asosidagi falsafiy qarashlarida sinergetik tamoyillar .....                       | 110 |
| <b>N.A.Imomova</b>   |     |
| Mehnat migratsiyasi vujudga kelishining ijtimoiy omillar va shart-sharoitlari .....                                | 117 |
| <b>L.R.Usmonova</b>  |     |
| Falsafiy komparativistika qadimgi dunyo madaniy muloqoti muammolari kontekstida .....                              | 122 |
| <b>B.S.Ganiyev, U.S.Maksumova</b>  |     |
| O'zbekistonda tadbirdorlik madaniyati dinamikasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari .....                             | 128 |
| <b>A.Tashanov</b>  |     |
| Zigmund Freyd va Erix Fromm falsafasida inson destruksiyasining ayrim talqinlari .....                             | 135 |
| <b>A.A.Qambarov</b>  |     |
| Ma'rifatli avlodni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy tahlili .....   | 140 |
| <b>D.X.Gafforova, I.I.Rizayev</b>  |     |
| O'rta asrlar O'zbekiston maqbaralarida tug'larning islom va tangrichilikdagi muqaddas<br>timsoliy vazifalari ..... | 144 |
| <b>J.J.Shodiyev</b>  |     |
| Insonlarni qadrlash va uni ma'naviy-axloqiy jihatdan qo'llab-quvatlashda din va falsafaning<br>o'rni .....         | 150 |
| <b>D.O.G'afurov</b>  |     |
| O'zbek milliy nikoh marosimlarining transformatsion xususiyatlari va uning ma'naviy<br>qiyoferasi .....            | 155 |

---

## SIYOSAT

|   |     |
|---|-----|
| <b>R.B.Mirzabayev</b>   |     |
| Yangi O'zbekistonda davlat xizmati sohasi takomillashuvi jarayonlari .....  | 159 |
| <b>R.A.Ikramov</b>  |     |
| Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda huquqiy ta'lim-tarbiya va ommaviy axborot<br>vositalarning o'rni .....           | 168 |
| <b>D.Sh.Maxkamov</b>  |     |
| Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati .....   | 173 |
| <b>M.M.Safarov</b>  |     |
| Yangi O'zbekiston yoshlari siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini futurologik<br>istiqbollari ..... | 177 |

---

## ТАРИХ

|  |     |
|--|-----|
| <b>A.Sharafiddinov</b>   |     |
| Farg'onan viloyatining Andijon uyezdida paxtachilik va paxta sanoatining shakllanishi<br>(XIX asr oxiri – XX asr boshlari) ..... | 185 |
| <b>M.F.Rasulov</b>   |     |
| O'zbekiston minoralari haqida ayrim mulohazalar (qadimgi va o'rta asrlar davri) .....  | 190 |
| <b>M.H.Isamiddinov, M.H.Hasanov, N.Qambarov</b>  |     |
| 2022-yili Quva arkida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari .....  | 196 |
| <b>F.E.Atajanova</b>   |     |
| Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi: muammolar, vazifalar va natijalar .....   | 200 |
| <b>B.T.Mirzaqulov</b>  |     |
| Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligida davlat boshqaruvi .....  | 204 |

## TOPISHMOQ SHE'RLAR VA ULARNING BADIY-ESTETIK FUNKSIYASI

## ЗАГАДКИ СТИХИ И ИХ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ

## RIDDLES POEMS AND THEIR ARTISTIC AND AESTHETIC FUNCTION

Abdullayeva Gulnoza Voxidjonovna<sup>1</sup><sup>1</sup>Abdullayeva Gulnoza Voxidjonovna

– Farg'ona davlat univesiteti o'qituvchi

**Annotatsiya**

*Maqlolada topishmoq janri va folklor ta'sirida yozma adabiyotda, xususan, bolalar she'riyatida she'riy topishmoq janrining yuzaga kelishi, bolalarning tafakkuri va aqliy salohiyatining rivojanishidagi ahamiyati, poetik xususiyatlari, ma'rifiy, badiy-estetik mohiyat kasb etishi tadqiq qilingan. Tursunboy Adshboev, Polat Mo'min va Abdurahmon Akbarning shakily-mazmuniy novatorona topishmoqlari asosida tahlil amalga oshirilgan. She'riy topishmoqlar yaratishda izdoshlik va o'ziga xoslik, ijodkorning uslubiy mahorati, individualligi qiyoslangan.*

**Аннотация**

В статье исследуется возникновение жанра поэтической загадки в письменной литературе, особенно в детской поэзии под влиянием жанра загадки и фольклора, его значение в развитии мышления и умственного потенциала детей, его поэтические свойства, приобретение воспитательной способности, художественно-эстетическая сущность. Анализ проводился на основе новаторских загадок Турсунбоя Адшбоева, Полата Момина и Абдурахмана Акбара. В создании поэтических загадок сопоставляются традиционализм и оригинальность, стилистическое мастерство и индивидуальность теорца.

**Abstract**

*The article investigates the emergence of the poetic riddle genre in written literature, especially in children's poetry under the influence of the riddle genre and folklore, its importance in the development of children's thinking and mental potential, its poetic properties, and the acquisition of an educational, artistic and aesthetic essence. The analysis was carried out on the basis of innovative riddles by Tursunboy Adshboev, Polat Momin and Abdurahman Akbar. In the creation of poetic riddles, followership and originality, stylistic skills and individuality of the creator are compared.*

**Kalit so'zlar:** Folklor, topishmoq, shakl va mazmun, an'ana va novatorlik, adabiy topishmoqlar, metafora, o'xshatish, to'tlik.

**Ключевые слова:** Фольклор, загадка, форма и содержание, традиция и новаторство, литературные загадки, метафора, сравнение, четвёрка.

**Key words:** Folklore, riddle, form and content, tradition and innovation, literary riddles, metaphor, simile, fourth.

**KIRISH**

Topishmoqlar xalq og'zaki ijodida alohida o'rin tutadi. Folkloarning ta'sirida yozma adabiyotda ham topishmoq she'rlar yaratildiki, bu ayniqsa bolalar adabiyotida katta badiy-estetik mohiyat kasb etadi. Bu janrning mohiyati metafora bilan bog'liq bo'lib, ularda topilishi lozim bo'lgan narsa-buyumning asosiy xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Qadimda topishmoqlar cho'pchak, topmachoq, matal, bayt, jumboq, topar kabi nomlar bilan yuritilgan[1.B.28]. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida ham xalq topishmoqlaridan bir qancha namunalar keltirilgan. Topishmoqlarda xalq hayoti, turmush darajasi madaniyati va urf odati ma'lum ma'noda o'z ifodasini topadi, yechilishi mumkin bo'lgan so'roq majoziy shaklda ifodalanib, uning ma'nosini yashirinchha bo'ladi. Bu janrda narsa yoki hodisa o'xshatish, o'zaro qiyoslash, taqqoslash orqali gavdalantiriladi [2.B.24].

**MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI**

Bolalar tafakkur olamining shakllanishida topishmoqning ahamiyati katta. Bolalar adabiyoti mustaqil ravishda shakllana boshlagandan beri ijodkorlar tomonidan xalq og'zaki ijodi namunalaridan oziqlangan holda ko'plab adabiy topishmoqlar yaratildi. Zamonaviy o'zbek bolalar adabiyoti mazmun va shakliy jihatdan yangilanishlarga boy bo'lib, topishmoq she'rlar yaratish yo'llidagi tajribalar ham diqqatga sazovordir. A.Akbar tomonidan yaratilgan she'riy topishmoqlar ma'rifiy, badiy-estetik mohiyat kasb etishi bilan tadqiqot talabdir. Ijodkor folklor, milliy adabiyot, ustozlar tajribasi, jahon adabiyoti namunalaridan bahramand bo'lib, adabiy tajribalarga tayangan holda o'ziga xos poetik mazmun va shaklda topishmoqlar yaratdi. Topishmoqlar yosh kitobxonning fikrashiga, tafakkur tarziga rag'bat beruvchi janr sanaladi. U kuzatuvchanlik, topqirlik, hozirjavoblik

sifatlarini shakllantirish barobarida bolaning so'z boyligini oshirishga, nutqining o'sishiga yordam beradi.

Ado etib o'zini / Tozalikka yo'l ochar.

Suv tegsa goh qo'llardan / Baqaga o'xshab qochar. [3.B.87].

(sovun)

Topishmoq to'rtlik shaklida bo'lib, juft misralari qofiyalangan, so'zları sodda va ravon. Bolalar tafakkuriga xos obrazlardan foydalangan. Topilayotgan narsa yoki buyumga xos xususiyatlari obrazli o'xshatishlar asosida keltirilgan. Topishmoqning javobi - "Sovun". Sovundan qancha foydalansak tanamiz poklanib boradi, shu asnoda u tugab boradi, go'yo o'zini yaxshilik yo'lida fido etgan insonlar singari. Topishmoq zamirga ezgulik singdirilgan. Sovundan foydalanganimizda ba'zan qo'lizdan sirpanib tushib ketadi. Shoir bu holatni obrazli tarzda ajoyib "tesha tegmagan" o'xshatish - "baqaga o'xshab qochar" bilan ifoda etadi.

Topishmoqlar ijtimoiy hayot va tabiat hodisalari bilan chambarchas bog'langan bo'lib, real voqelikka asoslanadi. Unda atrofimizni o'rab turgan moddiy dunyodagi turli narsalar aks etadi. Har bir topishmoq o'ziga xos shakl va mazmunga ega. Topishmoqda falsafiy, tarixiy, etnografik tushunchalar, hodisalarning mohiyati nihoyatda go'zal, obrazli iboralar bilan aks ettiriladi[4.B.28]. Topishmoqlar ikki kishi yoki jamoa o'tasida berilgan jumboqli savol-javob tarzida ham yaratiladi.

A.Akbar qalamiga mansub topishmoqlar asosan "to'rtlik" shaklida bo'lib, mazmun jihatdan o'ziga xos ohorli o'xshatishlar, ta'rif, tavsifdan iborat. Tili ravon sodda, bola dunyoqarashiga mosdir. Shoirning topishmoqlari asosan ikki kishi - muallif va kitobxon o'tasidagi savol- javob tarzida yaratilgan. M.Sulaymonovning "O'zbek xalq og'zaki ijodi" uslubiy qo'llanmasida "Topishmoq ijrosi uchun kamida ikki kishi, ikki guruh yoki topishmoq aytuvchi va uni yechuvchilar, javobni topuvchilar bo'lishi kerak", - deb fikr bildiradi[5.B.29]. An'anvaiy tarzda topishmoqlarning savol qismi tabiat, tabiat hodisalari, umuman har bir obyektga badiiy tus berilgan holda obrazli taqqoslash, o'xshatish orqali jumboqlanadi. Javob qismi esa obrazlar orqali jumboqlangan obyekt - narsa yoki tabiat hodisalarining nomini aytib berish, ma'nosini topish, yashiringan jumboqni yechishdan iborat.

Kunu tun parvona zamin boshida Na damni bilishar, na olishar tin.

Biriga qarasang ko'zing qamashar Biriga soatlab tikilish mumkin? [6.B.90] (Quyosh va oy)

Topishmoq tabiatning muhim unsuri quyosh va oy haqidadir. Savol qismida uning xususiyatlari obrazli tarzda, taqqoslash asosida ko'rsatib beriladi. "Biriga qarasang ko'zing qamashar" – quyoshning ta'rifi ya'ni xususiyati keltirilgan. Kitobxon shu ibora orqali javobini topa oladi. "Biriga soatlab tikilish mumkin" - iborasi orqali esa, topishmoqning ikkinchi javobi kelib chiqadi. "Ko'zing qamashar"- "tikilish mumkin" so'zları bir-biriga zid ma'noli bo'lib-tazod san'atini yuzaga keltirgan. Topishmoqlar tuzilishiga ko'ra bir yoki bir necha predmetli bo'ladi. Ushbu topishmoq bir necha savol va bir necha javobli (predmetli) topishmoqlar sirasiga kiradi. A.Akbar topishmoqlarining yana bir jihat shuki, ba'zi topishmoqlarining savol qismi oxirida so'roq belgisi qo'yilgan, lekin hech bir misrada so'roq so'zi ishlatilmagan. So'roq ohangi yordamida aytigani uchun "so'roq" tinish belgisi qo'yilgan.

Bayroqchaman, bayroqcha Rangim yam – yashil.

Kuzga qadar xilpiray, Shamol shafqat qil. [7.B.91]

(barg)

Topishmoq intoq san'ati asosiga qurilgan bo'lib, o'ziga xos o'xshatish (bayroqchaman) bilan boshlanadi. Topilayotgan jumboqning xususiyatlari misralarda birma-bir, bosqichma-bosqich keltiriladi. Birinchi misrada shakli, ikkinchi misrada rangi, uchinchi misrada holati, to'rtinchi misrada xulosa tarzda beriladi. Ikkinchi misrada nomi topilayotgan narsaning rangi beriladi "yam - yashil". Bolakaylar tafakkurida bunday o'xshatish va tasvirlashlar orqali unga mos keluvchi narsalar bir-bir gavdalanadi va aniqroq tasavvurni yuzaga keltiradi. Yam - yashil so'zi orqali "barg" xayolga keladi. 3-misradan esa fikrlari oydinlashib, haqiqatdan ham "barg"- yaproq ekanligini tushunadi. Sababi barg (hilpirab turishi) bayroqchaga o'xshaydi, rangi yam-yashil, lekin bu yashillik kuzga qadar hilpiraydi, shamol esganda asta-sekin yerga tusha boshlaydi. Bargning bayroqchaga o'xshatilishi ajoyib badiiy topilmadir. Shu bilan birga tabiat qonunini (bargning umri kuzga qadar bo'lishi) bolalar tafakkuriga xos tarzda berib o'tadi. Tabiat, tabiat hodisalari va narsalarni bir - biriga o'xshatish, taqqoslash orqali borliqni, undagi mavjud narsalarning mohiyatini teran anglashga katta yordam beradi.

Qop-qoradir Jismimiz.

## ADABIYOTSHUNOSLIK

Charos erur Ismimiz. [8.Б.91]

(Uzum)

Topishmoqning shakli sodda ya'ni to'rt misradan iborat bo'lib, misradagi so'zlar soni ham oz. Qisman qofiyadosh misralardagi so'zlar ikkitadan: "Qop - qoradir", "charos erur", to'liq qofiyadosh misralaradagi so'zlar bittadan: "Jismimiz - Ismimiz" tarzda ifoda etilgan. Topilayotgan narsaning belgisi, atalgan nomi keltirilgan. Bunday yodga solish usuli orqali, ya'ni nomini, rangini eslatish bilan bolalarning xotirasini mustahkamlashga diqqat e'tiborini jamlashga katta yordam beradi va topqirlik, hozirjavoblikka o'rgatadi. Topishmoqda berilgan sifat va ismidan "uzum" mevasi anglashiladi.

Yuvoshroqmiz kuchulkardan, Sariq, ola, qoramiz.

Bir emas naq besh harfni Yoddan ayta olamiz. [9.92]

(mushuk)

Bu topishmoqda topilayotgan jumboqning rangi, boshqalardan ajralib turuvchi farqi keltirilgan, nomi topilayotgan narsaning tilidan besh harfni bilishi ham aytib o'tilgan. "Besh harfni yoddan aytishi"dan ushbu topishmoqning javobi besh harfdan iborat ekanligiga ishora qilinayotganligini sezish qiyin emas. Ushbu jihatlarga ko'ra topishmoq ma'rifiy xususiyat kasb etadi.

Dasutrxonlar ko'rkimiz Lo'ppi, mazzali.

Sedanali piyoqli, Hamda jizzali.[10.Б.92]

(non)

Ushbu topishmoqni o'qiganimizda "mazzali, sedonali, jizzali" so'zlaridan folklor adabiyotimizga tegishli bo'lgan "Non yopganda" xalq qo'shig'i yodga tushadi. Topishmoqning asosiy jumboqli qismida shoир folkloriga murojaat qilgan. Bu holdan topishmoqning mazmuniy jihatdan novatorona ekanligini anglaymiz. Folklor namunalarni kiritilishi bolalarni o'ziga jalb etadi, o'qib - tushunish osonlashadi. Shoир "yodga solish" usulidan foydalangani bois qo'shiqni eslash yordamida bolakaylar qynalmay javobini topib oladilar.

Ma'rifiy ahamiyat kasb etuvchi topishimoqlar bugungi zamонавијада adabiyotimizda alohida o'reн tutadi. Bu kabi she'rlar yosh kitobxonning adabiyot va san'at, mutolaa madaniyati haqidagi qarashlarini boyitadi. Bolalarning fikr dunyosini kengaytirishda, aql idrokini rivojlantirishda, kuzatuvchanlik xissini, nafosat tuyg'usini o'stirishda muhim rol o'ynaydi.[11.Б ] A.Akbarning "Uyquchining tushlari" kitobiga kiritilgan "Adabiy topshiriqlar" i 5 ta topishmoqdan iborat bo'lib, nomi tartib raqami bilan beriladi. Masalan, 1-topishmoq, 2-topishmoq, 3-topishmoq, 4-topishmoq, 5-topishmoq kabi.

1-topishmoq

Zafar degan bolaga, Zafar Diyor adashdir.

Shukurboyga shubhasiz, Adash shukur Dadashdir.

Abdullaning o'zidan, Qancha shoир, nosir bor:

Qodiriy, Avloniy, Sher, To'qay, Oripov, Qahhor.

Adashlarni axtarib, Uka boshing qotirma.

Menda bor aynan senbop, G'alati boshqotirma.[12.Б.95].

Topishmoq to'rtlik band qurilishida bo'lib, 9 bandni tashkil etadi. Dastlabki ikki bandida shoир adib va shoirlarning ismini va ularning kim bilan adashligini aytib o'tadi. 3-bandidan topishmoqning savol qismi boshlanadi. Avvalgi ikki bandi bolalarni jumboqni yechishga tayyorlaydi. 3-bandida shoир so'z o'yini (tajnis she'riy san'ati) dan mohirona foydalangan. Chunonchi "Boshnig qotirma" - "Boshqotirma" tarzda 1-birkma "Boshing qotirma" ibora bo'lib, fe'l so'z turkumiga xos. "Ikkinchi boshqotirma" - ot bo'lib, "topishmoq" ma'nosini anglatadi. Bola e'tiborini jalb qiladi. So'z ma'nolarini farqlashga o'rgatadi.

Qambar, Safar, Narimon, Habib, Yayra va Sulton,

Xudoberdi-yu Qudrat, Rauf, Xamza, Muhammad.

Erkin, Latif va Farhod, Nosir adib shoirdir

Yozganlarimgning bari/ Bolalarga doirdir.

Shoир yuqorida 5 - 6 - 7 bandlarda bolalarning sevimli shoир va yozuvchilarini ismlarini keltirib o'tgan va ularning familiyasini aniqlashni jumboq sifatida qo'yadi.

Topishmog'im mana shu - /Surishtir, qara kitob.

Sanab o'tilganlarning Familiyasini top.

Bu bandda jumboq nima ekanligi va uni topish yo'llariga e'tibor qilinadi. Kitobxon tayyor ma'lumotni o'zlashtiruvchi, "hazm qiluvchi" gina emas, balki izlanib, kitob o'qib javobini topuvchidir.

Topishmoq she'rning oxirgi bandida jumboqning javobini topishga ko'mak maqsadida javobiga yaqinlashtiruvchi ma'lumotga ishora qilgan.

Yodingda tut bularning /Bari nosir, shoirdir

Yozganlarim avvalo, /Bolalarga doirdir.

Ushbu topishmoq bolalarни adabiyot olamiga yetaklaydi. Bolalar adabiyotining taniqli vakillarini yana bir yodga soladi va ularni ijod olami bilan tanishishga, kitob o'qishga undaydi. Yuqoridagi topishmoq she'r shakli va mazmuniy jihatdan novatorona yaratilgan. Hajman salmoqdo, voqeaband tarzda berilgan. Qofiyalanishi asosan a - b - v - b tarzda. Qolgan 4 ta topishmoqda ham bolalar yozuvchi va shoirlarni ismi, familiyasini yoki bolalarga oid badiiy asar nomini topish so'ralgan. Abdurahmon Akbarga xos bo'lgan bunday uslubning shakllanishida ustozi Tursunboy Adashboyevning o'rni beqiyos. Tursunboy Adashboyev sodda, ixcham topishmoqlari qatorida voqeaband asosida yaratilgan, hajman salmoqdo topishmoqlar ham alohida o'ren egallagan. Abdurahmon Akbarning yuqoridagi topishmoq she'ri adabiyotga oid va "Adabiy topishmoqlar" deb nomlangan bo'lsa, Tursunboy Adashboyevning "Osmon ko'kmi, zangori"[13.155-159] to'plamidagi "Bobo qancha yoshdasiz", "Yetmay qoldi" topishmoq she'rlari esa matemaikaga oid bo'lib, raqamlarni hisoblash yordamida topilishi kerak bo'lgan jumboqni ifoda etgan.

– Bobo, kenja nabirangiz Nеча yoshga chiqdi hozir?

– Kenjam Nazar, Men qanchaga chiqqan bo'lsam,

Shuncha oylik bo'ldi, b o'tam. - Siz qanchaga chiqdingiz?-

Qaytib-qaytib so'rар Javlon. Yetmish sakkiz yoshga chiqdik,

Nabiramiz ikkovlon. - Vuy, qiziq- a, xo'sh qanday?

– Mening yoshim unikiga qo'shganda... Kim topadi Ro'zmat bobo

Qancha yoshga to'lganligin? Nabirasi Nazir esa

Necha oylik bo'lganligin?..

Topishmoqning tezis qismi Ro'zmat bobo va Javlonning dialog asosidagi savol- javobi bilan boshlanadi. Ikki suhbatdoshning ismlari topishmoqning boshida berilmasdan, misralar tarkibida ya'ni, - yettingchi misrada Javlon, o'n ikkinchi misrada, Ro'zmat bobo ismlari keltirilgan bo'lib, muallif nutqi orqali aytib o'tilgan. Antitezis qismida topishmoqning javobiga ishora qiluvchi jumlalar berilgan va bu jumboqli vaziyatni yuzaga keltiradi, topguvchiga yo'nalish beradi. Sintez qismida nimani topish kerakligi muallif nutqi orqali jumboqni umumlashtirgan holda kitobxonga havola etadi.

Topishmoqlar jumboqning berilishiga ko'ra quydagi turlarga ajratishimiz mumkin:

1. Tarkibi birgina savol(jumboq) va birgina javobdan iborat bo'lgan topishmoqlar,

2. Tarkibi bir necha savol va unga mos tarzda bir necha javobdan iborat bo'lgan topishoqlar.

Tursunboy Adashboyevning yuqoridagi topishmog'i ikkinchi turga mansub bo'lib, tarkibida ikki savol va ikki javob mavjud. Abdurahmon Akbarning "Adabiy topishmoqlar"i ustoziga izdosh sifatida va o'ziga xos tarzda yaratilgan bo'lib, tarkibida bir necha jumboq (shoir va nosirlar ismi, familiyasini topish) hamda unga mos tarzda bir necha javobdan iborat. Ijodkor topishmoqlarning xos xususiyatlardan yana biri, topishmoq tarkibida savol so'zlar deyarli ishlatilmaydi, kitobxon she'rning ma'nosidan qanday vazifa qo'yilganini topib oladi. Odatda bolalar shoirlari tomonidan yaratilgan topishmoqlar qolipi quydagicha: "Buni toping qizlarim", "Bu nima, qizim yulduz?", "buni top" kabi jumlalar yoki nuqtalar o'rnnini to'ldirishdan iborat bo'lar edi. Shoir esa an'anaviy qolipdan chekinib, yangicha poetik usul yarata olgan.

Bolalarning sevimli shoirlaridan biri bo'lgan Po'lat Mo'min qalamiga mansub "Bolajon, bolajonim" kitobiga kiritilgan topishmoqlarning aksari nuqtalar o'rnni to'ldirish asosida yaratilgandir. "Tezda top javob" nomli topishmoqlar hajmi ham ancha salmoqli.

Juda sevamiz uni, Xilma-xildir mazmuni.

Bo'limasa ham muallim, Bera oladi ta'lim.

U barchaning ulfati, Bo'lar ba'zan surati.

Qani o'rtoq buni top, Eslagan der bu ..... [14.Б.56]

(kitob)

Topishmoq 8 misradan iborat bo'lib, qofiyalanishi ham o'zgacha, har baytdagi misra o'zaro qofiyalangan: a - a, b - b, s - s, d - d kabi. Topishmoqning javob qismida an'anaviy tarzda "Qani, o'rtoq, buni top!" iborasi keltirilgan, javob qismi "Eslagan der bu ..... " murojaat shaklida bo'lib,

## ADABIYOTSHUNOSLIK

she'r matnidagi tavsifdan va she'r ritmidan nuqtalarda yashiringan jumboqni topish mumkin. Oxirgi satrda javobga ishora aks etgan.

P.Mo'min ijodiga oid topishmoqlar asosan muallifning o'z nutqi orqali berilgan. "Toping tezroq", deya hitob qilib, topishmoq javobini topishga motivatsiya beradi. Bu bilan bolakaylor diqqat - e'tiborini jamlaydi, nigohi jumboqqa qaratilgan bo'ladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ko'rib o'tganimizdek A.Akbar, Tursunboy Adashboyev va P.Mo'min topishmoqlarida an'anaga izdoshlik aks etsa-da, o'ziga xoslik yaqqol sezilib turadi. A.Akbar topishmoqlari:

1) asosan 4 misradan iborat bo'lib, qofiyalanishi a - b - v - b tarzda ya'ni juft misralar o'zaro qofiyadosh;

2) topishmoqlar javobi shoir, lirik qahramon yoki topilayotgan narsaning o'z tilidan aytildi;

3) "buni top", "bu nima" kabi so'roqlar yoki nuqtalar o'rnini to'ldirish kabi topshiriqlar berilmaydi, so'roq so'zlar ishtirok etmaydi. Topishmoq mazmunidan jumboq anglanadi;

4) tili sodda, jonlantirish va o'xhatishlar asosiga qurilgan;

5) topilayotgan jumboqqa xos eng asosiy va yaqin ma'nolarni so'nggi (uchinchli va to'rtinchli) misralarda beradi, mazmunni kuchaytiradi.

6) ma'rifiylik jihatni ustun bo'lgan "adabiy topishmoqlar"ni yaratib, bolalar adabiyotida shakily-mazmuniy yangilanishlar sari yo'l ochdi.

Tursunboy Adashboyevning topishmoqlari

1) topishmoqlari tarkibi an'anaviy tarzda savol va javob qismdan iborat;

2) diologik nutq yetakchilik qiladi;

3) jumboq qismi muallif yoki lirik qahramon nutqi orqali beriladi;

4) Misralar tarkibida an'anaviy tarzda savol so'zlar berilib, topilishi kerak bo'lgan jumboqa ishora qilinadi.

5) Jumboqlar soni bitta, hajman salmoqli topishmoqlarida esa bir nechtadan iborat.

6) jonlantirish va o'xhatishlardan unumli foydalangan.

P.Mo'min topishmoqlari esa:

1) shakli salmoqdir, har biri olti va undan ko'p misralarni tashkil etadi. Qofiyalanishi juft holatda bo'lib, a - a - b - b - s - s - d - d shaklida. Bu holat ohangdorlikni oshishiga, yodda oson saqlab qolishga yordam beradi.

2) topishmoqlar asosan 2 qismdan iborat. Savol - jumboq qismi va javob qismi.

3) an'anaviy tarzda topishmoqning so'nggi misrasi javob qismida nuqtalar o'rnini to'ldirish asosiga qurilgan.

4) so'roq qismida oxirgi misradagi so'z va javob qismidagi topilgan narsa nomi qofiyadosh bo'ladi.

- Yoziladi so'zu gaplar, Kichiklar ham bilar.....

**(daftar)**

"gaplar" - "daftar" so'zlari o'zaro qofiyadosh.

5) tili sodda, ravon, bolalarcha o'xhatish va jonlantirishlardan unumli foydalangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bolalar adabiyotida yaratilgan topishmoqlarning tadqiqi asosida mavzusiga ko'ra tasnifni amalgalashirish ham mumkin.

- 1.Narsa-buyum nomlarini topishga qaratilgan topishmoqlar,
2. Tabiat hodisalari nomlarini topishga qaratilgan topishmoqlar,
3. Osmon jismlari nomini topishgaga qaratilgan topishmoqlar,
4. Inson ismi va familiyalarini ("Adabiy topishmoqlar"dagi kabi shoir va nosirlarning ism yoki familiyalarini) topishga qaratilgan topishmoqlar,

5. Hayvonot va nobotot olamini nomini topishga qaratilgan topishmoqlar,

6. Meva va sabzavotlar nomlarini topish uchun berilgan jumboqlar,

7. Yil hisobi, sanalar, insonlarning yoshini topishga qaratilgan topishmoqlar,

8. Geografik va joy nomlarini topish uchun berilgan topishmoqlar kabi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'zbek bolalar she'riyatida she'riy topishmoqlar kitobxonlar auditoriyasini hisobga olgan holda juda muhim o'rinn tutadi. Topishmoq janri muayyan davr shoirlari ijodi misoldida muttasil yangilanib, rivojlanib bordi. Bunda an'analarga izdoshlik va o'ziga xoslik uyg'unligida ma'rifiy xarakterdag'i she'r topishmoqlar yaratish bo'yicha muayyan tajribalar to'plandi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Sulaymonov M. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Namangan-2008
2. Салаев Ф, Қурбониёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. Тошкент: Янги аср авлоди. -2010
3. Akbar A.Uyquchining tushlari. "Sharq". -Toshkent, 2006.
4. Husainova Z. O'ylab top. Toshkent: Fan, 1993.3-bet
5. Sulaymonov M. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Namangan-2008
6. Akbar A. Uyquchining tushlari. "Sharq". -Toshkent, 2006.
7. Akbar A. Uyquchining tushlari. "Sharq". -Toshkent, 2006.
8. Akbar A. Uyquchining tushlari. "Sharq". -Toshkent, 2006.
9. Akbar A. Uyquchining tushlari. "Sharq". -Toshkent, 2006.
10. Akbar A. Uyquchining tushlari. "Sharq". -Toshkent, 2006.
11. Suyumov A, Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti.Toshkent: O'qituvchi.1995.
12. Akbar A. Uyquchining tushlari. "Sharq". – Toshkent, 2006
13. Adashboyev T. Osmon Ko'kmi zangori. – Toshkenr. "O'zbekiston", 2018.
14. Po'lat Mo'min. Bolajon, bolajonim. - "Cho'pon". - Toshkent, 2004